



NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK FIKRINI INOBATGA OLISH MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20127670>

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Rayxona Raxmonova Nabijon qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik muhokamasini tashkil etishning huquqiy asoslari, xususan, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun hamda regulation.gov.uz va lex.uz elektron platformalarining ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, amaliy misol sifatida Yo‘l harakati to‘g‘risidagi qaror loyihasini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish tajribasi ko‘rib chiqiladi. Ishda xalqaro tajribaga murojaat qilinib, Finlyandiyada amalga oshirilayotgan “Hearing the Citizens” loyihasi asosida fuqarolarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi regulation.gov.uz platformasi bilan Finlyandiyaning lausuntopalvelu.fi sayti o‘zaro taqqoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Normativ-huquqiy hujjatlar, jamoatchilik fikri, jamoatchilik muhokamasi, regulation.gov.uz, lex.uz, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, yo‘l harakati to‘g‘risidagi qaror loyihasi, xalqaro tajriba, Finlandiya, Hearing the Citizens loyihasi, lausuntopalvelu.fi, ochiqlik va shaffoflik, fuqarolik ishtiroki.*

Zamonaviy demokratik jamiyatda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning qonun ijodkorligida ishtiroki davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois, jamoatchilik muhokamasi mexanizmlarini rivojlantirish huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston

Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida ishlab chiqilishi hamda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi lozim. Shuningdek, mazkur jarayonda lex.uz portali qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e‘lon qilish va ulardan erkin foydalanishni ta‘minlaydi. Ushbu platforma fuqarolarning huquqiy xabardorligini oshirishda muhim rol



o'ynaydi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish regulation.gov.uz portali orqali amalga oshiriladi. Ushbu platforma fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va mutaxassislariga qonun loyihalari yuzasidan o'z fikr va takliflarini bildirish imkonini beradi. Amaliy misol sifatida "Yo'l harakati to'g'risidagi qaror" loyihasini keltirish mumkin. Mazkur loyiha jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, haydovchilar, mutaxassislar va fuqarolardan ko'plab takliflar kelib tushgan. Ya'ni unga muvofiq, 2022-yilda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi avtomobil oynalariga plyonka yopishtirish tartibini soddalashtirish bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqqan. Loyiha regulation.gov.uz portali orqali jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan. Muhokama jarayonida 1000 dan ortiq fuqarolik fikrlari kelib tushgan. Aksariyat haydovchilar yozgi issiqda quyoshdan himoyalani zarurligini ta'kidlab, ijobiy takliflar bildirishgan. Natijada, fuqarolarning fikri e'tiborga olinib, plyonka o'rnatish tartibi soddalashtirilgan va ruxsatnoma olish jarayoni yengillashtirilgan. Bu holat jamoatchilik ishtiroki real siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkazishi mumkinligini amalda ko'rsatdi.

Shu bilan birga aytish joizki, regulation.gov.uz normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish bo'yicha muhim elektron platforma bo'lishiga qaramay,

uning faoliyatida ayrim tizimli kamchiliklar mavjud.

Bular: fuqarolarning fikr-mulohazalariga rasmiy va asoslantirilgan javob berish mexanizmi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ko'p hollarda bildirilgan takliflar qabul qilingan yoki rad etilganligi haqida aniq va ochiq axborot berilmaydi. Bu esa fuqarolarda o'z fikrining ahamiyatsizligi haqidagi tasavvurni shakllantirishi mumkin; jamoatchilik muhokamasida aholining faolligi past darajada qolmoqda. Bunga qonun loyihalari matnining murakkab huquqiy tilda yozilgani, oddiy fuqarolar uchun tushuntiruvchi materiallarning yetishmasligi sabab bo'lmoqda; platformaning texnik va funksional imkoniyatlari cheklangan. Xususan, mobil ilovaning yo'qligi, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys va filtrlash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmagani ishtirokni cheklaydi; nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlarda yashovchi fuqarolar uchun teng imkoniyatlar to'liq ta'minlanmagan. Audio formatlar, soddalashtirilgan matnlar va alternativ aloqa kanallari yetarli emas; jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha ochiq tahliliy hisobotlar e'lon qilish amaliyoti sust rivojlangan. Qaysi takliflar hujjat matniga kiritilgani va buning sabablari ko'rsatilmashligi shaffoflik tamoyiliga to'liq mos kelmaydi.

Finlyandiya jamoatchilik ishtirokini ta'minlash borasida ilg'or tajribasini oladigan bo'lsak. Ushbu mamlakatda amalga oshirilayotgan



“Hearing the Citizens” loyihasi orqali fuqarolar qonun loyihalarini ishlab chiqishning dastlabki bosqichlaridayoq muhokama jarayoniga jalb etiladi. Bunda lausuntopalvelu.fi elektron platformasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda har bir fuqaro yoki tashkilot rasmiy ekspert xulosasi va taklifini qoldirishi mumkin. Muhokama yakunida hukumat organlari kelib tushgan barcha fikrlar bo‘yicha ochiq hisobot e‘lon qilinadi hamda AI orqali kelib tushgan fikrlarni tahlil qiladi. Bu esa fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Shuningdek, regulation.gov.uz va lausuntopalvelu.fi platformalarining taqqoslab ko‘ridigan bo‘lsak, regulation.gov.uz va lausuntopalvelu.fi saytlarining asosiy o‘xshash jihati — normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish imkonini berishidir. Har ikkala platforma ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi.

Biroq Finlyandiya platformasida fuqarolarning fikrlariga rasmiy va asoslantirilgan javob berish majburiy hisoblanadi. O‘zbekistonda esa bu mexanizm hali to‘liq shakllanmagan. Shu bois, lausuntopalvelu.fi tajribasi regulation.gov.uz platformasini yanada takomillashtirish uchun muhim namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra regulation.gov.uz platformasida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini yanada samarali inobatga olish maqsadida

Finlyandiyaning ilg‘or tajribasi, xususan, “Hearing the Citizens” loyihasi asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchiidan, sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish orqali kelib tushgan takliflarni tahlil qilish va ular bo‘yicha “qabul qilindi” yoki “rad etildi” degan asoslantirilgan avtomatik javoblar berish tizimini yaratish zarur. Bu fuqarolarga o‘z fikrining taqdiri haqida aniq ma‘lumot olish imkonini beradi va jamoatchilik muhokamasiga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Ikkinchiidan, fikri qabul qilingan fuqarolar uchun rasmiy minnatdorchilik e‘lon qilish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday e‘tirof fuqarolarning qonun ijodkorligidagi ishtirokini rag‘batlantiradi va ijtimoiy faollikni oshiradi.

Uchinchiidan, eng ko‘p va sifatli takliflar bildirgan fuqarolarni aniqlab, “Yilning eng faol fuqarosi” nominatsiyasini ta‘sis etish hamda ularni ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish tavsiya etiladi. Bu tajriba Finlyandiya fuqarolik faolligini oshirishda samarali natija berganligini ta‘kidlash joiz.

To‘rtinchiidan, ijtimoiy ahamiyatga ega, amaliy jihatdan foydali takliflar mualliflarini moddiy rag‘batlantirish, ya‘ni ma‘lum miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlash jamoatchilik muhokamasida raqobatbardosh va puxta takliflar sonini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi boshqa fuqarolarni ham



normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasida demokratik boshqaruvni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. regulation.gov.uz platformasi bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qilsa-da, Finlyandiyaning “Hearing the Citizens” loyihasi tajribasi

shuni ko‘rsatadiki, fuqarolarning fikriga rasmiy, shaffof va asoslantirilgan munosabat bildirish ishtirok darajasini sezilarli oshiradi. Sun‘iy intellekt asosida fikrlarni tahlil qilish, qabul qilingan takliflar uchun minnatdorchilik bildirish, eng faol fuqarolarni ommaviy va moddiy rag‘batlantirish kabi mexanizmlarni joriy etish fuqarolarning qonun ijodkorligiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Natijada normativ-huquqiy hujjatlarning sifati oshib, ularning jamiyat ehtiyojlariga mosligi ta‘minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

INTERNET MANBALARI:

1. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari milliy bazasi — lex.uz
2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali — regulation.gov.uz
3. Finlyandiya hukumati huzuridagi jamoatchilik muhokamasi platformasi — lausuntopalvelu.fi
4. Finlyandiya fuqarolar ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan “Hearing the Citizens” loyihasi bo‘yicha ochiq manbalar

Maqola yaxshi yozilgan. Unda ega va kesim to‘g‘ri qo‘llanilgan, ma‘no va mantiq mavjud.

Maqolani o‘qigan o‘quvchi ushbu soha bo‘yicha o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni olishi mumkin.

Ayrim joylarini tahrirlab, maqolani gazeta yoki ommaviy nashrda chop etish mumkin.

Maqolani yozish jarayonida muallif tomonidan yetarli darajada izlanish olib borilgani yaqqol seziladi.

Maqola uchun sizga berilgan baho — 19 ball.